



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

O`ZBEKISTONGA KOREYSLARNING DEPORTATSIYA QILINISHI

Abdullayeva Nazokat Baxtiyarovna

UrDU “Tarix ” kafedrasini o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada sobiq sovet davlatining deportatsiya siyosati qurboni bo`lgan koreyslarning O`zbekistonga majburan ko`chirib keltirilishi va O`zbekistonda koreys diasporasining shakllanishi tarixi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: deportatsiya, evakuatsiya, koreyslar, SSSR xalq komissarlari soveti, koreys diasporasi.

Аннотация: В статье идёт речь о принудительном переселении корейцев, ставших жертвами политики депортации бывшего Советского государства, и об истории формирования корейской диаспоры в Узбекистане.

Ключевые слова: депортация, эвакуация, корейцы, Совет Народных Комиссаров СССР, корейская диаспора.

Bugungi kunda O`zbekistonda 200 mingdan ziyod koreys diasporasi vakillari istiqomat qiladi. Ular yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sanoat va qishloq xo`jaligi salohiyatini mustahkamlash, ilm-fan, ta`lim, sog`liqni saqlash va boshqa sohalar taraqqiyotiga munosib

hissa qo‘shib kelayotir.

Koreyslarning O‘zbekistonga kirib kelishi ikkinchi jahon urushi arafasida SSSR da boshlangan butun-butun xalqlarni majburan ko‘chirish- deportatsiya siyosati bilan bogliq. Majburan ko‘chirilishga mahkum qilingan xalqlar uchun bu siyosat haqiqiy fojea bo‘ldi. Majburan ko‘chirish siyosati juda ko‘plab qurbonlar, ma’naviy va siyosiy yo‘qotishlarga olib keldi. Ko‘chirilishga mahkum qilingan xalqlar madaniyati va xo‘jaligiga katta zarar yetkazildi.

Ko‘chishga mahkum etilganlarni «evakuatsiya» qilish ushbu xalqlar uchun chinakam fojeaga aylandi.

1937-yil 21-avgustda SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Bolsheviklar KP MK Siyosiy byurosi Uzoq Sharqdan koreyslarni O‘zbekiston va Qozog‘istonga ko‘chirish to‘g‘risida dekret chiqardi.¹ Dekretda Uzoq Sharqning chegara hududlarida yashovchi barcha koreyslarni Janubiy Qozog‘iston viloyati, Orolbo‘yi tumanlari, Balxash va O‘zbekiston SSR hududlariga ko‘chirish ko‘zda tutilgan. Ko‘chirish ishlarini tezlik bilan 1-yanvar 1938 yilga tugatish belgilangan.

Garchi, dekretda Qozog‘iston SSR va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashlariga ko‘chirish hududlari va punktlarini zudlik bilan belgilash hamda ko‘chirilayotgan aholining yangi joylarga iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, ularga zarur yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini belgilash majburiyati yuklatilgan bo‘lsada, bu qaror O‘zbekiston va Qozog‘iston rahbarlari bilan kelishilmagan holda qabul qilinishi qarorning amalga oshirilishida juda katta qiyinchiliklarga sabab bo‘ldi.

1937-yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududiga 170 mingdan ortiq koreyslar majburan ko‘chirib keltirildi. Ularning 74 mingdan ortig‘i O‘zbekistonga, qolgani Qozog‘istonga keltirildi² Koreya xalqining erkin rivojlanishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini poymol etgan holda, davlat tomonidan e‘lon qilingan milliy siyosatga zid ravishda dahshatli shafqatsizlikning noqonuniy harakati amalga oshirildi.

1937-yil 21-avgustdagi partiya-davlat direktivasi nihoyatda qisqa vaqt ichida Qozog‘iston va O‘zbekiston hukumatlarini “yangi joylarga ko‘chirilgan aholining iqtisodiy

¹ ЦГА РУЗ, ф. 837, оп. 32, д. 587, л. 1-7.

² П.Г.Ким Кокейцы Республики Узбекистан: История и современность.-Т.:Узбекистан,1993.- с-3

rivojlanishini” ta’minlash majburiyatini yukladi³ (7-modda). Jamoalashtirish siyosati natijasida iqtisodiy jihatdan zaiflashib qolgan O’rta Osiyo sovet respublikalari 1937-1938-yillarning sovuq qishi arafasida o’zlariga ajratilgan aholi punktlariga kelgan ko’p minglab koreys oilalarini joylashtirishdek og’ir yukni o’z zimmalariga oldilar⁴.

Harbiy-strategik xususiyatga ega bo’lgan ,butun bir xalqlar taqdirini keskin o’zgartirib yuborgan ushbu tadbir unga hech qanday tayyorgarlik ko`rmasdan shoshma - shosharlik bilan o`tkaziladi. O`zbekistonga 6 ming oila (30 ming kishi) ko`chirilishi rejslashtirilgani holda , oktyabr oyida esa bu raqam yana 5 ming oilaga (22-25 ming kishi) ko`paytirildi⁵ . Ko`chirib keltirilganlarni joylashtirish uchun javobgarlik O`zbekiston va Qozog`iston Xalq Komissarlari Sovetlariga yuklatildi.

Bu qaror O`zbekiston uchun juda ko`p murakkab vazifalarni yuzaga keltirdi. Moddiy-texnik jihatdan u bunchalik ko`p sonli muhojirlarni qabul qilishga tayyor emas edi. 30-yillarning o`rtalarida respublika o`zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo`yicha mamlakatda oxirgi o`rinlardan birini egallagan edi. U nafaqat ko`chirib keltirilgan aholi, balki o`z aholisi uchun ham normal ijtimoiy-iqtisodiy va turmush sharoitlarini ta`minlay olmasdi. Uy-joy, oziq-ovqat yetishmas edi, chunki O`zbekistonga qurilish materiallari, non, go`sht boshqa respublikalardan olib kelingan, tibbiyot xodimlari, dori-darmonlar yetishmas edi. O`sha yillarda mamlakatda bezgak avj olgan edi. 10 ming aholiga to`g`ri keladigan shifokorlar soni (4,7 shifokor) bo`yicha O`zbekiston respublikaning boshqa respublikalari orasida o`ninchi o`rinni egallagan.

Shunga qaramay, O`zbekiston hukumati va xalqi o`sha og`ir sharoitlarda barcha muhojirlarni qabul qilish, joylashtirish, oziq-ovqat va ish bilan ta`minlash uchun bor kuchini sarfladi.

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Bolsheviklar KP MK Siyosiy byurosining 1937-yil 21-avgustdagi qarorini amalga oshirish uchun O`zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1937-yil 16-sentabrda “Koreys xonadonlarini ko`chirish to`g`risida” qarori qabul qilindi.

³ ЦГА РУЗ, ф. 837, оп. 32, д. 587, л. 1-7.

⁴ Беляя книга. О депортации корейского населения России в 30-40-х годах. Книга первая.- Москва: Интерпракс, 1992. С. 64-65.)

⁵ O`zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. F. R-837. Inventar 1. D. 587. L. 12.

Muhojirlarni qabul qilish va joylashtirish bo'yicha Respublika favqulodda komissiyasi tuzildi.

Qarorda majburan ko'chirib keltirilgan koreyslarni joylashtirish bo'yicha hayotiy muhim chora-tadbirlar belgilandi, ularning o'z vaqtida amalga oshirilishi ko'chirib keltirilganlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Ammo buni amalga oshirish ushbu davr sharoitida juda qiyin kechdi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1937-yil 16-sentabrda "Koreys xonadonlarini ko'chirish to'g'risida" qaroriga ko'ra 6000 koreys xo'jaligini sholi, g'alla va sabzavotchilikka ixtisoslashgan Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Gurlan tumani va Ikromov tumanlariga joylashtirish rejalashtirildi.

1937-yil 15-noyabrda O'zbekistonda majburan ko'chirib keltirilgan koreyslar asosan O'rtachirchiq (11932 kishi), Quyichirchiq (8669 kishi), Yuqorichirchiq (1814 kishi), Mirzacho'l (6975 kishi), Bekobod (4438 kishi), Chinoz (2746 kishi), Qo'ng'iro't (2746 kishi), Gurlan (5799 kishi) tumanlari: Samarqand (1798 kishi), Buxoro (399 kishi), Farg'ona (1104 kishi), Qo'qon (1700 kishi), Namangan (1269 kishi), Andijon (1928 kishi) shaharlariga joylashtirildi⁶

1937 yildan 1945 yilgacha bu koreyslar maxsus ko'chmanchilar sifatida ro'yxatga olinmagan, ularning pasportlariga O'zbekistondan tashqariga chiqishni ta'qiqlovchi cheklovlar kiritilgan. Koreyslar maxsus ko'chmanchilar sifatida 1945 yil 2 iyunda SSSR Ichki ishlar xalq komissari L. Beriyaning buyrug'iga ko'ra, ro'yxatga olinadi hamda, yashash rejimini kuchaytirish bo'yicha barcha choralar ularga nisbatan ham qo'llaniladi.⁷

SSSR Ichki ishlar vazirligining 1946-yil 2-avgustdagi 196-sonli ko'rsatmasi bilan ma'muriy tartibda chiqarib yuborilgan, pasportlarida 5 yil muddatga cheklovlar bo'lgan va amal qilish muddati allaqachon tugagan koreyslarga, shu jumladan Uzoq Sharq hududidan chiqarib yuborilgan koreyslarga ham cheklovsiz yangi pasportlar berish va ularni yashash joyi bo'yicha umumiy asosda rasmiylashtirish belgilanadi.

Biroq, SSSR Ichki ishlar vazirligining 1947 yil 3 martdagi 30-sonli ikkinchi direktivasi koreyslarga pasport berishda SSSR Ichki ishlar vazirligining 196-sonli ko'rsatmasini qo'llash

⁶ https://zonakz.net/2003/04/09/корейцы_Узбекистана_вчера_и_сегодня.

⁷ П.Г.Ким Корейцы Республики Узбекистан: История и современность.-Т.:Узбекистан,1993.- с-5

tartibiga muvofiq, faqat Markaziy Osiyo respublikalarida istiqomat qiluvchi koreyslarga pasport berilar edi, chegara hududlarida yashovchi koreyslar bundan mustasno. Xuddi shu direktivada koreyslarga Uzoq Sharq hududida (Buryat-Mo'g'ul Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, Primorsk va Xabarovsk o'lkalari, Chita viloyati) yashash ta'qiqlangan. Va faqat 50-yillarning ikkinchi yarmida bu cheklovlar olib tashlanadi va ko'chirilgan koreyslar o'z vatanlariga qaytish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda Koreya diasporasi O'zbekistondagi ko'p millatli xalqning ajralmas qismi hisoblanadi va respublikada o'tkaziladigan barcha ijtimoiy va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etadi. Diasporaning o'nlab vakillari Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar, jumladan, "Polyarnaya zvezda" xo'jaligining raisi Kim Pen Xva bu mukofot bilan ikki marta taqdirlangan. Mustaqillik xalq an'analari, urfodatlari va tilining saqlanishi hamda diasporaning yanada hamjihat bo'lishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib berdi. 1991 yilda tashkil etilgan O'zbekistondagi Koreys madaniy markazlari uyushmasining Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida 23 ta bo'linmasi faoliyat ko'rsatmoqda⁸.

⁸ <https://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/o-zbekiston-koreys-madaniy-markazlari-uyushmasi/?lang=uk>